AHOLI STATISTIKASINING STATISTIK KO‘RSATKICHLARI

Turayeva Gulizahro
Guliston davlat universiteti o’qituvchisi

Sayfullayev Azimjon
Abduxakimov Diyorbek
Ortiqboyev Baxtiyor
Sotvoldiyev Muhammadjon
Guliston davlat universiteti talabalari

Annotatsiya. *Mazkur tezisda aholi statistikasi sohasida qo‘llaniladigan asosiy statistik ko‘rsatkichlar yoritilgan. Aholi soni, aholi o‘sish darajasi, hududlar kesimida aholi soni hamda, demografik koeffisiyentlar ko‘rsatib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *aholi statistikasi, demografik ko‘rsatkichlar, tabiiy harakat, aholi soni, migratsiya statistikasi, hududiy tarkib, statistik jadval, O‘zbekiston demografiyasi, tabiiy o‘sish sur’ati,shahar va qishloq aholisi.*

KIRISH

Aholi statistikasi — mamlakatda demografik jarayonlarni o‘rganish, aholining soni, tarkibi, joylashuvi, tabiiy harakati va migratsion harakatlarini tahlil qilish bilan shug‘ullanuvchi muhim ilmiy soha hisoblanadi. Har bir davlat uchun aholining demografik holatini o‘rganish iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy rejalarni belgilashda asosiy o‘rin tutadi. Aholi sonining o‘sishi yoki kamayishi, uning tarkibidagi o‘zgarishlar nafaqat ichki siyosatga, balki tashqi iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarga ham ta’sir ko‘rsatadi.

ASOSIY QISM

Aholi statistikasi - demografik o‘zgarishlarni aks ettiruvchi muhim ilmiy soha hisoblanadi. U aholining soni, tarkibi, tabiiy harakati, migratsiyasi va boshqa demografik ko‘rsatkichlar orqali tahlil qilinadi. Asosiy statistik ko‘rsatkichlar quyidagilardan iborat:

1. Aholi soni va tarkibi: Doimiy aholining umumiy soni, yoshi, jinsi, millati, ijtimoiy holatiga doir ko‘rsatkichlar;

2. Tabiiy harakat: Tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlari, tabiiy o‘sish sur’ati;

3. Demografik koeffitsiyentlar: Tug‘ilish, o‘lim, migratsiya, nikoh va ajralish koeffitsiyentlari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil 1-yanvar holatiga doimiy yashovchi aholi soni 37 543.2 ming kishini tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan 2 foizga oshgan.

Aholining jinsiy va hududiy tarkibi

1-jadval

Shahar aholisi: 19 135.8 ming kishi	Erkaklar soni: 9 592.4 ming kishi
	Ayollar soni: 9 543.4 ming kishi
Qishloq aholisi: 18 407.4 ming kishi	Erkaklar soni: 9 312.1 ming kishi
	Ayollar soni: 9 095.3 ming kishi

Aholining jinsiy tarkibi – aholining erkak va ayollarga taqsimlanishidir. Demografiyada jinsiy tarkibni tasavvur qilishda quyidagi ikkita yondashuv mavjud:

- birinchisi – jami aholi tarkibidagi yoki ayrim yosh guruh-laridagi erkak va ayollar mutlaq soni va ulushining oddiy hisobi;

- ikkinchisi – jami aholi tarkibidagi yoki ayrim yosh guruh-laridagi erkaklar sonining ayollar soniga nisbati (yoki aksincha).

Aholi o‘sish dinamikasi: 2020–2025 yillar

2-jadval

Yil	Aholi soni (ming kishi)	Yillik o‘sish (ming kishi)	O‘sish sur’ati (%)
2020 yil	34 558,9	—	—
2021 yil	35 271,3	712,4	2,06
2022 yil	35 958,4	687,1	1,95
2023 yil	36 799,8	841,4	2,34
2024 yil	37 134,2	334,4	0,91
2025 yil⅟	37 543.2	743.4	2

Aholi sonining o‘sishi — aholi yoki tarqoq guruhdagi odamlar sonining ko‘payishidir. Dunyo aholisining o‘sishi har yili taxminan 83 million kishini yoki yiliga 1,1 % ni tashkil qiladi. Dunyo aholisi 1800-yildagi 1 milliarddan 2020-yilda 7,9 milliardga o‘sdi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining prognozlariga ko‘ra, aholi soni o‘sishda davom etadi va hisob-kitoblarga ko‘ra, 2030-yil o‘rtalarida umumiy aholi soni 8,6 milliard, 2050-yil o‘rtalarida 9,8 milliard va 2100-yilga kelib 11,2 milliardni tashkil etadi.

Hududlar kesimida aholi soni (2025-yil 1-yanvar holatiga)

3-jadval

Hudud	Aholi soni (ming kishi)	Hudud	Aholi soni (ming kishi)
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2 029,7	Samarqand viloyati	4 297,5
Andijon viloyati	3 461.0	Surxondaryo viloyati	2 945,5
Buxoro viloyati	2 077,0	Sirdaryo viloyati	930,8
Jizzax viloyati	1 537,6	Toshkent viloyati	3 108,5
Qashqadaryo viloyati	3 639,3	Farg‘ona viloyati	4 144,7

Navoiy viloyati	1 094,7	Xorazm viloyati	2 032,4
Namangan viloyati	3 131,7	Toshkent shahri	3 112,8

XULOSA

Aholi statistikasi orqali jamiyatdagi demografik o‘zgarishlar aniqlanadi va ularni chuqur tahlil qilish asosida ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilinadi. Statistik ko‘rsatkichlar – aholi farovonligini ta’minlash yo‘lida muhim vosita hisoblanadi. O‘zbekiston misolida ko‘rib chiqilgan ma’lumotlar demografik jarayonlarning barqaror rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Hududiy farqlarning aniqlanishi esa mahalliy boshqaruv organlariga yanada samarali rejalashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti – https://stat.uz/img/demografiya-press-reliz-23_01_2025-uzb_p19246.pdf
2. Otabek B. et al. Ishlab chiqarilgan mahsulotning hajmini tahlil qilish //Fan va Tadqiqot Samaralari. – 2025. – Т. 2. – №. 4. – С. 37-39.
3. Gulizahro, T. R., Maqsad, B., Elmurod, S., Firdavs, S., & Aziza, T. (2025). Boshqaruv hisobida hisob siyosati tashkil etish. Fan va Tadqiqot Samaralari, 2(3), 99-101.
4. Turayeva G. et al. Ishlab chiqarishda zararsizlikni tahlil qilish //Наука и инновация. – 2025. – Т. 3. – №. 14. – С. 56-58.
5. Rahmatulla E. et al. Korxonaning ishlab chiqarish dasturini tuzish //Fan va Tadqiqot Samaralari. – 2025. – Т. 2. – №. 4. – С. 28-30.
6. Джалилова, С., & Хамидова, Ф. (2025). Роль цвета в формировании национальной картины мира: узбекский и испанский языки в сравнении. Зарубежная лингвистика и лингводидактика, 3(1), 380-384.
7. Mekhrojovna, D. S., & Erkinovna, K. F. (2025). Characteristic features of the semantics of color in the phraseology of the Uzbek language. EduVision: Journal of Innovations in Pedagogy and Educational Advancements, 1(2), 131-136.
8. Sadikova, B. M. (2021). Italyan paremiologiyasida antonimik korreliyatsiyali maqollarning semantik xususiyatlari. 23April, 9.
9. Minavvarxon, U., & Muhammadaminovich, M. A. (2024). Paremiologik birliklarning tilshunoslikda tutgan o ‘rni, maqsadi, vazifalari. Новости образования: исследование в XXI веке, 3(26), 165-168.
10. Rafikovich, H. M. (2022). The classification of teaching methods in higher education. Journal of Positive School Psychology, 1582-1587.
11. Shokhsanam, T. (2024). Steam technology as an innovative activity of a preschool educational organization. American journal of education and learning, 2(5), 454-459.